MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBAR KADRLARINING MEDIASAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING DOLZARBLIGI

Rahimahon Abdulxakimovna Madaminova
Pucheon xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar. **G.A.Gaynazarova**
P.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. *Zamonaviy MTT rahbari faqatgina ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi shaxs bo‘lib qolmay, balki axborot muhitida to‘g‘ri qaror qabul qiluvchi, pedagoglar, ota-onalar hamda jamoatchilik bilan samarali media-kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yuvchi yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar kadrlarining mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim boshqaruvi nuqtayi nazaridan dolzarb hamda amaliy ahamiyatga ega muammo hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar. *Madiasavodxonlik, axborot muhiti, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, soxta axborotlar, media maydon, sun’iy intellect, raqamli innovatsiyalar, media-kommunikatsiya.*

Аннотация. *Руководитель современного дошкольного образовательного учреждения — это не только человек, организующий образовательный процесс, но и лидер, принимающий правильные решения в информационной среде, устанавливающий эффективную медиакоммуникацию с учителями, родителями и общественностью. В этой связи вопрос развития медиаграмотности руководителей дошкольных образовательных учреждений является актуальной и практической проблемой с точки зрения современного управления образованием.*

Ключевые слова: *медиаграмотность, информационная среда, цифровые платформы, социальные сети, фейковые новости, медиапространство, искусственный интеллект, цифровые инновации, медиакоммуникация.*

Hozirgi globallashuv hamda raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimida axborot makonining kengayishi, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining boshqaruv jarayonlariga faol integratsiyalashuvi maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar kadrlaridan yuqori darajadagi mediasavodxonlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etmoqda.

UNESCO tashkilotining Media & Information Literacy - ya’ni – MIL1 - media va axborot savodxonligi bo‘yicha siyosati media va axborot savodxonligi zamonaviy jamiyatda yuzaga kelayotgan XXI-asr muammolariga samarali yechim topish uchun zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalar majmuini qamrab oladi. Jumladan, u yolg‘on va noto‘g‘ri axborotlarning tarqalishini oldini olish, nafratni targ‘ib qiluvchi kontentlarga tanqidiy yondashish, shuningdek, ommaviy axborot vositalari hamda raqamli innovatsiyalarga, xususan, sun’iy intellekt texnologiyalariga nisbatan ongli va asoslangan munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy MTT rahbari faqatgina ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi shaxs bo‘lib qolmay, balki axborot muhitida to‘g‘ri qaror qabul qiluvchi, pedagoglar, ota-onalar hamda jamoatchilik bilan samarali media-kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yuvchi yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi. Mediasavodxonlik kompetensiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi noto‘g‘ri yoki soxta axborotlarning tarqalishiga, boshqaruv faoliyatida kamchiliklarning yuzaga kelishiga va ta’lim muassasasi obro‘-e’tiboriga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olib kelishi mumkin.

[1] https://www.unesco.org/en/media-information-literacy?utm_source

Shu jihatdan, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar kadrlarining mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim boshqaruvi nuqtayi nazaridan dolzarb hamda amaliy ahamiyatga ega muammo hisoblanadi.

So‘nggi yillarda pedagogika hamda ta’limni boshqarish sohasida mediasavodxonlik masalasi muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. O‘zbekistonda ham mediasavodxonlik muammosiga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda asosan o‘quvchilar, talabalar, pedagoglar hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Jumladan,

B.S.Abdullayeva, .Sh.A.Abdurahmanova, U.Sh.Begimqulov, X.M.Burxanov, F.R.Madarahimova, Sh.A.Raximova A.U.Shermuxamedova kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda 3D tizimli interaktiv axborot-ta’lim resurslaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishning nazariy hamda amaliy asoslari, axborot xavfsizligi, foydalanuvchilarning internet madaniyati va axborot xurujlarining ijtimoiy oqibatlari, oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida mediasavodxonlikni rivojlantirish kabi masalalar yoritilgan,

MDH olimlari tomonidan esa mediasavodxonlik asosan umumta’lim muassasalari, o‘quvchilar va pedagoglar misolida tadqiq etilgan. Talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish, maktab o‘quvchilari va talabalar mediasavodxonligini rivojlantirishning nazariy asoslari, umumta’lim maktablarida mediata’limni tashkil etish, pedagoglarning media kompetentligini oshirish, ularni raqamli va axborot muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash masalalari qozog‘istonlik A.A. Abisheva, rossiyalik A.V. Fedorov, I.V. Chelysheva, O.E. Zhilavskayalar, belarus olimi L.S. Zaznobina kabi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Jahon miqyosida olib borilgan ilmiy izlanishlarda mediasavodxonlik, media-ta’lim va axborot madaniyati muammolari asosan shaxsda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Xorijlik olimlardan D. Buckingham, R. Hobbs, H. Jenkins, S.Livingstone, W.J.Potter va boshqalar tomonidan mediasavodxonlik, axborot madaniyati, media-ta’lim va raqamli kompetensiyalar masalalari keng o‘rganilgan. Ayniqsa, xorijiy tadqiqotlarda mediasavodxonlikning nazariy-metodologik asoslari, uni ta’lim tizimiga joriy etish mexanizmlari va pedagogik amaliyotdagi o‘rni atroflicha tahlil qilingan.

Biroq ta’lim tashkilotlari rahbarlari, xususan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog rahbarlarining mediasavodxonligini rivojlantirish masalasi ushbu tadqiqotlarda mustaqil va tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Ushbu holat tanlangan mavzuning ilmiy jihatdan yangiligini va tadqiqotga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

Pedagogika hamda ta’limni boshqarish sohasida mediasavodxonlik masalasi keyingi yillarda muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Jahon miqyosida olib borilgan ilmiy izlanishlarda mediasavodxonlik, media-ta’lim va axborot madaniyati muammolari asosan shaxsda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog‘liq holda o‘rganilgan.

O‘zbekiston ilmiy makonida ham mediasavodxonlik muammosiga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda asosan o‘quvchilar, talabalar, pedagoglar hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar kadrlarining mediasavodxonligini rivojlantirish muammosi mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda

kompleks, tizimli va amaliy yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini taqozo etadi.

O‘zbekistonda media savodxonlik va axborot madaniyati masalalari ta’lim tizimida nazariy va amaliy muammo sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Bu yondashuv axborotni tanqidiy tahlil qilish, baholash va mas’uliyat bilan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.[1]

Respublikada media va axborot savodxonligini o‘qitish va o‘rganishning pedagogik yondashuvlari, interfaol metodlar va raqamli vositalar uchastkasi tahlil qilinmoqda — bu pedagog va oliy ta’lim muassasalari uchun muhimdir.[2]

Zamonaviy raqamli axborot makonida media va axborot savodxonligi ko‘nikmalari shaxsning axborotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va mas’uliyat bilan qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu ko‘nikmalar ayniqsa yolg‘on yoki manipulyativ ma’lumotlarning tarqalishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Olimlarning e’tirof etishlaricha, ta’lim muassasasida mediasavodxonlikni o‘rgatish media va axborot ta’limi jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligini ta’minlash va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida media savodxonlik va axborot madaniyati nafaqat o‘quvchilar, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhim omil sifatida tan olinmoqda. Raqamli transformatsiya davrida yoshlar va ta’lim boshqaruvchilari uchun axborotni tekshirish, soxta ma’lumotlardan himoyalanish va axborotni mas’uliyat bilan qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ortib bormoqda.

Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar kadrlarining mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosi raqamli axborot muhitining murakkabligi, tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligini ta’minlash zarurati, ta’lim tizimida media kompetensiyalarining integratsiyasi, boshqaruv

jarayonlarining samaradorligini oshirish kabi ijtimoiy-pedagogik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu muammo ta’lim boshqaruvi ilmida dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.J.Ochilov MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGINI O'QITISH VA O'RGANISHNING PEDAGOGIK USULLARI Media va axborot savodxonligini o‘qitish va o‘rganishning pedagogik usullari Vol. 2 No. 6. 2025. B.94-97
2. Абдикаримов, К. (2024). Медиаграмотность как средство защиты медиасреды Узбекистана от дезинформации. МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ МЕДИА И КОММУНИКАЦИЙ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ, (6).
3. Muxiyatdinova A. (2025). PEDAGOGICAL BASIS OF IMPROVING MEDIA LITERACY IN STUDENTS. Наука и инновации в системе образования, 4(3), 72–76.
4. Развитие медиа- и информационной грамотности для устойчивого Узбекистана. UNESCO (2025 https://www.unesco.org/en/articles/building-media-and-informati
5. Многосторонний семинар на тему «К общей концепции стратегии медиа- и информационной грамотности в Узбекистане» https://tvet.edu.uz/en/news/mnogostoronniy-seminar-k-edinomu-videniyu-
6. G.A Gaynazarova, I.Z Bahronovna. Mediasavodxonlikning yosh avlod ma’naviyatiga ta’siri. World of science 6 (11), 123-128